
Prezident topshirig'i ijrosi: Rishton tumani misolida

KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

Bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, odamlar turmush darajasini oshirish umummilliy harakatga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan amaliyotga jadal tatbiq etilayotgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" g'oyasi har birimizga, har bir xonadon, har bir oilaga yangi hayot nafasini olib kirdi.

Davlatimiz rahbari topshiriqlarida Hukumatdan tortib tashkilotlargacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allik sharoitidan olib chiqish bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Bugun Farg'ona viloyati hokimining birinchi o'rinbosari Xabib Sirojiddinov, soha mutaxassislari va Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov hamkorligida "To'da" mahallasida bo'lib u yedagi xonadon vakillari bilan suhbatlashishdi.

Ularning taklif va muammolarini o'rgandi. Shuningdek, "mahalla yettiligi"ga mahalladagi har bir xonadonni to'liq xatlovdan o'tkazib, kambag'al oila bo'yicha individual ishlash borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar berildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturiga asosan tumandagi har bir mahalla, unda istiqomat qilayotgan oila va uning a'zolari to'liq xatlovdan o'tkazilib, unga asosan "Kambag'al oilalar portreti" ishlab chiqilmoqda. Darvoqe, aholi o'rtasida kambag'allik va ishsizlikni tugatish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Sababi, davlatimiz siyosatida inson manfaatlari, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Shu bois, yurtimizda aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik borligi tan olinib, uni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilindi.

2024-09-28 08:23:02